

**BUXORO SHAHRI VA UNING ATROFIDAGI ILK O'RTA ASRLAR
YODGORLIKLARI TADQIQIDA ARXEOLOG-OLIMLARNING O'RNI (VARAXSHA,
POYKEND VA VARDONZE MISOLIDA)**

Anotatsiya. Mazkur maqolada Varaxsha, Poykend va Vardonze yodgorliklari misolida Buxoro shahri va uning atrofidagi ilk o'rta asrlar davri madaniy merosining o'rganilishida arxeolog olimlarning ilmiy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mazkur yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazishmalar, topilmalar hamda ularning tarixiy-madaniy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, arxeologlarning ilmiy izlanishlari orqali ilk o'rta asrlarda Buxoro vohasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida muhim ma'lumotlar aniqlangani bayon etiladi. Varaxsha saroy devoriy suratlari, Poykendning savdo markazi sifatidagi o'rni hamda Vardonzening hunarmandchilik va kulolchilik markazi sifatidagi ahamiyati tarixiy manbalar va arxeologik dalillar asosida tahlil qilingan. Maqolada ushbu yodgorliklarning o'zbek davlatchiligi, urbanizatsiya jarayonlari va moddiy madaniyat tarixini o'rganishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Varaxsha, Poykend, Vardonze, arxeologiya, yodgorlik, ilk o'rta asrlar, qazishma, devoriy suratlar, kulolchilik, hunarmandchilik.

**THE ROLE OF ARCHAEOLOGISTS IN THE RESEARCH OF EARLY
MIEVEAL MONUMENTS IN THE CITY OF BUKHARA AND ITS ATROPHY (IN
THE EXAMPLE OF VARAKHSHA, PAYKEND AND VARDONZE)**

Annotation. This article analyzes the scientific activities of archaeologists in the study of the cultural heritage of the city of Bukhara and its surroundings in the early medieval period using the examples of the monuments of Varakhsha, Poykend and Vardonze. The study highlights the archaeological excavations, finds and their historical and cultural significance at these monuments. It also states that through the scientific research of archaeologists, important information has been revealed about the political, economic and cultural life of the Bukhara oasis in the early Middle Ages. The murals of the Varakhsha palace, the role of Poykend as a trading center and the importance of Vardonze as a center of crafts and pottery are analyzed based on historical sources and archaeological evidence. The article scientifically substantiates the role of these monuments in the study of the history of Uzbek statehood, urbanization processes and material culture.

Keywords: Bukhara, Varakhsha, Poykend, Vardonze, archeology, monument, early Middle Ages, excavation, wall paintings, pottery, crafts.

**РОЛЬ АРХЕОЛОГОВ В ИССЛЕДОВАНИИ РАННЕСРЕДНЕВЕКОВЫХ
ПАМЯТНИКОВ В ГОРОДЕ БУХАРА И ЕГО АТРОФИЯ (НА ПРИМЕРЕ
ВАРАХШИ, ПАЙКЕНДА И ВАРДОНЗЫ)**

Аннотация. В данной статье анализируется научная деятельность археологов в изучении культурного наследия города Бухары и его окрестностей в раннем средневековье на примере памятников Варахши, Пойкенда и Вardonze. В исследовании освещаются археологические раскопки, находки и их историко-культурное значение на этих памятниках. Также утверждается, что благодаря научным исследованиям археологов была получена важная информация о политической, экономической и культурной жизни Бухарского оазиса в раннем Средневековье. На основе исторических источников и

археологических данных анализируются фрески Варахиского дворца, роль Пойкенда как торгового центра и значение Вардонзе как центра ремесел и гончарного дела. В статье научно обосновывается роль этих памятников в изучении истории узбекской государственности, процессов урбанизации и материальной культуры.

Ключевые слова: Бухара, Варахша, Пойкенд, Вардонзе, археология, памятник, раннее Средневековье, раскопки, настенная живопись, керамика, ремесла.

Kirish. Tarixni yoritishda va o'rganishda arxeologlar olib borgan tadqiqot ishlarining ahamiyati juda kattadir. So'nggi yillar ichida jahonning, jumladan O'rta Osiyoning turli hududlarida ko'plab arxeologik kashfiyotlar qililib, muhim ma'lumotlar to'plandi. Olimlar tomonidan topib tekshirilgan bu yangi ashyolar eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi haqidagi bilimlarni kengaytiradi. Mazkur manba va ashyolar jahon tarixining qadimgi davr siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari haqida to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. Jahonda ibtidoiy odamlar tarqalishi jarayonidan boshlab, xalqlarning tarixida turli xil murakkab voqealar sodir bo'lgan. Ular ibtidoiy to'da davri, ibtidoiy xo'jaliklari va mehnat qurollari, urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, xo'jalikning ishlab chiqarish shakllariga o'tilishi, binokorlik va hunarmandchilikning rivojlanishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi, antik davri, o'rta asrlar me'morchiligi va moddiy madaniyatining rivojlanishi bilan birga boshqa ko'pdan-ko'p voqealar bilan bog'liq.

Xorazm va Zarafshon vodiysida Ya. G'ulomov, B. V. Andrianov, A. R. Muhammadjonov va boshqalarning qadimgi irrigatsiya va dehqonchilik vohalarining vujudga kelishi jarayonlarini o'rganish borasida olib borgan arxeologik va etnografik izla-nishlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda Zarafshon vodiysi, Xorazm, Surxondaryo va Sirdaryo vohalari hamda Farg'ona vodiysida olib borilgan ar-eologik va antropologik izla-nishlar tufayli O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston yerlarida yashovchi aholining asosiy antropologik tiplarga bo'linganligi ularning shakllanish tarixini yoritish imkonini berdi; o'zbek etnosining o'ziga xos xususiyatlari, tub etnik elementlarning ularga kelib qo'shilgan etnoslar bilan qorishib ketish jarayoni kuzatildi. Bu masalaga oydinlik kiritishda T. Xo'jayov, K. Shoniyozov va boshqa hissasi salmoqli bo'ldi. Shu asnodda Arxeologiya fanining turli davr va yo'nalishlari bo'yicha il-miy maktablar tarkib to'di. Ularga Ya. G'ulomov, S. P. Tolstov, A. P. Okladnikov, M. Ye. Massoy va G. A. Pugachenkova kabi olimlar asos soldi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Buxoro vohasi arxeologiyasi va moddiy madaniyati tarixiga doir e'lon qilingan asarlar va 1917-yilga qadar olib borilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Bu davr adabiyotlariga Keller, V.Tizengauzen, A.Borns, P.I.Lerx, V.V.Bartoldlarning asarlarini, hamda N.F.Sitnyakovskiy, R.Pampelli, L.A.Ziminlarning arxeologik tadqiqotlarini kiritish mumkin. Sovet davrida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va adabiyotlar kiritilgan. Bu davrda tadqiqot olib borgan olimlarga V.A.Shishkin, A.Y.Yakubovskiy, Y.G'ulomov, A.Asqarov, V.N.Kesayev, A.Muhammadjonov, S.K.Kabanov, R.Sulaymonov, G.Semyonov kabilar Buxoro arxeologiyasiga doir juda ko'plab fundamental adabiyotlar va ilmiy maqolalar e'lon qildi. Natijada vohaning qadimgi va ilk o'rta asrlar davriga doir katta materiallar qo'lga kiritildi. Istiqloq sharofati bilan moziy – tarixga, boy madaniy merosga bo'lgan qiziqishlar natijasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilishiga zamin yaratilmoqda. Shu sababli mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar va yaratilgan asarlari uchinchi guruh adabiyotlariga A.Muhammadjonov, kiritildi. J.Mirzaahmedov, R.Almeyev, M.Niyazova, N.Sobirov, Bu davrda Sh.Adilov, H.To'rayev, G.Shishkina, A.Raimkulov, Y.Nekrasova, K.Rahimov, A.Yarkulov, A.Ochilov, N.Jo'rayevlar kabi mahalliy tarixchilar bilan bir qatorda O'zbekiston-AQSH, O'zbekiston-Fransiya, O'zbekiston Italiya, O'zbekiston-Rossiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyalari amalga Ushbu tadqiqotlar Buxoro vohasida joylashgan arxeologik yodgorliklarning holati va ularning moddiy madaniyatini ochib berishga muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq yuqorida nomlari keltirilgan ishlar arxeologik tadqiqotlar sirasiga mansub bo'lib, ularda yodgorliklarning holati, ularni saqlash, qayta tiklash hamda muzeylashtirish kabi masalalar monografik tadqiqot darajasiga olib chiqilmagan. Poykent

54 va Varaxsha hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixiga dissertatsiyaning birinchi bobi ikkinchi va uchinchi paragraflarida batafsil to'xtalib o'tilgan[7;-6].

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, ilmiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Varaxsha, Poykend hamda Vardonze yodgorliklariga oid arxeologik, tarixiy va manbashunoslik materiallari tahlil qilindi. Maqolada arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan moddiy topilmalarni o'rganishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va analitik metodlardan foydalanildi. Yodgorliklardan topilgan me'moriy qoldiqlar, kulolchilik buyumlari, devoriy suratlar va tangalar orqali ilk o'rta asrlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar ilmiy jihatdan tahlil etildi. Shuningdek, tadqiqot davomida arxeolog olimlarning ilmiy asarlari, ekspeditsiya hisobotlari va tarixiy manbalar o'zaro solishtirilib, umumlashtirish usuli orqali xulosalar chiqarildi. Yodgorliklarning hududiy joylashuvi va tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda tarixiy-geografik yondashuv ham muhim metod sifatida qo'llanildi. Mazkur metodologik asoslar tadqiqotning ilmiy ishonchligi va tarixiy manbalarga tayangan holda obyektiv yoritilishiga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama.

Poykent shahri harobalari arxeologik jihatdan dastlab 1903-yilda R.Pampelli, 1913-14 yillarda L. A. Ziminlar tomonidan o'rganilgan[3;-5]. Buxoro vohasi shaharsozlik madaniyatining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixini o'rganish munosabati bilan o'tgan asrning 80-90 yillarida Poykent harobalarida keng ko'lamda mut-tasil arxeologik qazish ishlari amalga oshirildi. Arxeologik tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida 1980-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va Rossiya Davlat Ermitajining maxsus qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi (A.Muhammadjonov rahbarligida) tashkil etildi. Bu ekspeditsiya a'zolari (G. L. Semenov, J.Mirzaahmedov, Sh. Odilov va boshqalar) ko'p yillarga rejalashtirgan arxeologik qazishlarni to hozirgi kunga qadar davom ettirmoqdalar. I.tlar va arxeologik qazishlar natijasida Poykent yodgorligining umumiy tarixiy topografiyasi o'rganilib, rejaları chizmalarga tushirildi. Unda qad ko'targan ilk chegara istehkomi, so'ngra shahar qiyofasini shakllantirgan baland va qalin mustahkam mudofaa devorlar bilan o'ralgan ark, 4 tomonida bir nechta darvozalar (eni 3,5 m) o'rnatilgan va qator burjli devorlar qad ko'targan ichki va tashqi Shahrison hamda saxn bo'ylab ko'plab karvonsaroy va nausli nekropol joylashgan ulkan rabodlarning yuzaga kelishini tarixiy bosqichlari va madaniy qatlamlarining qalinligi belgilandi. Poykentning qadimgi qismi — arkning os-tida madaniy qatlam qariyb 18 m ga borsa, ichki va tashqi shahrisonlari ostida esa uning qalinligi 4-4,5 m dan oshmaydi. Arkning quyi qatlamida qavd etilgan topilmalar miloddan avvalgi IV—III asrlar, ichki shahrisonning ostki qatlami topilmalari milodiy III—IV asrlar va tashqi shahrisonning quyi qatlami va topilmalari esa IV—V asrlar bilan sanaladi. Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, Poykentda hayot miloddan avvalgi IV asrdan to milodiy XI asrgacha, ya'ni 1500-yil davomida kechgani ma'lum bo'ldi.

Poykent hududidagi arxeologik tadqiqotlarni 1896-yilda N.F.Sitnyakovskiy boshlab bergan. 1887-yil I.T.Poslavskiyning Ko'hna Poykentga tashrifi chog'ida bergan ma'lumotlariga asoslanib[3;-48], N.F.Sitnyakovskiyning Poykent arxeologik yodgorligida olib borgan ishlari alohida ajralib turadi deyish mumkin⁴⁰. Poykentdagi tadqiqotlar 1903-yilda Karnegi instituti geologi Rafael Pampelli boshchiligidagi davom ettirilgan. R.Pampelli "Poykent eramizdan oldingi asrlarda ham juda boy shahar bo'lib, suvsizlik sabab u zavolga yuz tutgan, hozirda shaharning Ark va uning devorlari qum bosishi arafasida" deb ta'kidlaydi. 1910 yillarda Turkiston arxeologik havaskorlar to'garagi kotibi L.A.Zimin ham tadqiqot ishlarini olib boradi. L.A.Zimin vohadagi tadqiqotlarini turli arxeologik yodgorliklarda kuzatuv ishlarini olib borishdan boshlaydi. L.A.Zimin Poykentga ilk tashrifida hudud yaxshi saqlanganligini alohida ta'kidlab, dastlabki izlanishlarni topografik o'lchov olishdan boshlaydi va o'rta asrlar davriga doir artefaktlarni qo'lga kiritadi.

Akademik Yahyo G'ulomovning arxeologik va etnologik kuzatishlari Vardonzening XX asr oxirlarigacha obod savdo-hunarmandchilik shaharchasi bo'lib kelganligini ko'rsatadi. XVIII—XX asr boshlarida Vardonze Buxoro amirligining Shofirkon tumani markazi bo'lgan[1;-150]. XVIII—XIX asrlarga kelib Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi ichki nizolardan

Vardonze ancha jabrlangan. Sadridin Ayniy guvohlik berishicha, 1880-yillarda Vardonze va uning atroflarini qattiq shamol natijasida kuchli qum bosadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Vardonze XX asrning boshida ham obod bo'lib, savdo va hunarmandchilik markazi sifatidagi o'z mavqeini saqlab qoldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Varaxsha, Poykend va Vardonze yodgorliklari Buxoro vohasining ilk o'rta asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida vohada shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va saroy madaniyati yuqori darajada rivojlanganligi aniqlangan. Ayniqsa, Varaxshadagi devoriy suratlar, Poykenddagi savdo yo'llari bilan bog'liq topilmalar hamda Vardonzedagi kulolchilik namunalari o'sha davr moddiy va ma'naviy hayotini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi. Arxeolog olimlarning izlanishlari tufayli Buxoro vohasining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, urbanizatsiya jarayonlari va qadimiy sivilizatsiyalar bilan aloqalari ilmiy asosda tiklandi. Mazkur tadqiqotlar nafaqat milliy tarixni chuqur o'rganishga, balki O'zbekistonning boy madaniy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гулямов Я.Г. Археологические работы к северу от Бухарского Оазиса // ТИИА УзССР. – Ташкент, 1956. -Вып. 8. – С. 149–161.
2. Лыкошин Н. С. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учреждения Туркестанского Клуба любителей археологии. – Ташкент, 1896. – С. 48.
3. Зимин Л.А. Отчет о двух поездках по Бухаре с археологической целью. ПТКЛА, год XX. 1917. - Вып. 2. – С. 131.
4. Раимқулов А.А., Ранте Р., Мирзааҳмедов Ж.К., Адилов Ш.Т., Бернар В., Дантес Е., Асланов А.П. Пойкент шаҳар харобаларида 2010-2011 йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар (2010-2011 йиллар). – Самарқанд, 2012. – №8. – Б. 236–245.
5. Собиров Н. Пойкент тарихига бир назар: археологик тадқиқотлар таҳлили / Музейлар маънавият кўзгуси мавзусида ўтказилган Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд, 2016. – Б.78-79.
6. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана, Известия Туркестанского отдела русского географического общества. – Ташкент, 1900. – Т. I. - Вып. 2. – С. 130.
7. Хуррамов А.Р. Бухоро viloyatining arxeologik yodgorliklari va ularni muzeylashtirishning tarixiy asoslari (Poykent va Varaxsha yodgorliklari misolida) 07.00.01 – O'zbekiston tarixi. tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2025. 56-B.
8. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 г. в западной части Бухарского оазиса. -Ташкент: Фан, 1940.– 50 с.